



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 184 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinoz	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	

DORIVOR O'SIMLIKLAR KURSINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA KEYS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li
Qoraqalpoq davlat universiteti
Dorivor o'simliklar agroekologiyasi va
introduksiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanishning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Keys texnologiyalari orqali o'quvchilar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shuningdek, keys usuli dorivor o'simliklarning biologik xususiyatlari hamda ularning xalq tabobati va farmatsevtikadagi ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, keys texnologiyasi, o'qitish metodikasi, interfaol ta'lim, nazariya va amaliyot uyg'unligi.

Abstract: This article highlights the role and significance of using case technologies in improving the methodology of teaching the course on medicinal plants. The case method enables students to apply theoretical knowledge in practical contexts, develop independent thinking, analyze problem situations, and enhance creative skills. Moreover, it provides deeper insights into the biological characteristics of medicinal plants and their importance in traditional medicine and modern pharmacy.

Key words: medicinal plants, case technology, teaching methodology, interactive learning, integration of theory and practice.

Аннотация: В статье рассматривается использование кейс-технологий в совершенствовании методики преподавания курса лекарственных растений. Применение кейсов способствует развитию у студентов навыков применения теоретических знаний в практических ситуациях, формированию критического и творческого мышления, а также умений анализа проблемных ситуаций. Кроме того, кейс-метод позволяет глубже изучить биологические особенности лекарственных растений и их значение в народной медицине и фармацевтике.

Ключевые слова: лекарственные растения, кейс-технология, методика преподавания, интерактивное обучение, интеграция теории и практики.

KIRISH

Hozirgi kunda pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri – har tomonlama yetuk, bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdir. Bunda dars jarayonida hamda amaliy mashg'ulotlarda talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot oqimi va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida talabalarga yetkazib berish mushkuldir. Shu bois, o'qituvchilar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yishga e'tibor qaratishlari zarur. Xususan, biologiya ta'limi mazmunida uchraydigan muammoli masalalarni o'qitishda "keys texnologiyasi"dan foydalanish yuqori samara beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzluksiz ta'lim tizimi va ta'lim jarayoni uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlardan V.P. Bepalko, P.Ya. Galperin, S.Ye. Rubinshteyn, L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, G.K. Selevko, N.F. Talizina, I.S. Yakimanskaya, J.G'. Yo'ldoshev, N. Muslimov, B.S. Abdullayeva, J.O. Tolipova, I.V. Dushina, L. Golish, U.E. Raxmatov, N.B. Sultanova, I.T. Azimov, S.I. Zayniev, S.Z. Jumaev kabi tadqiqotchilar turli ilmiy izlanishlar olib borganlar.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida talabalar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirib bormoqda. Buning sababi shundaki, ushbu metod talabalarga tashabbus bildirish, nazariy bilimlarni o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil fikrlash imkonini beradi. O'z navbatida, vaziyatlarni tahlil qilish jarayoni talabalarning kasbiy shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi, ularning kasbiy jihatdan "ulg'ayishiga" xizmat qiladi, ta'lim olishga bo'lgan qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turini kengaytiruvchi, alohida pedagogik paradigma sifatida namoyon bo'lib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish va noan'anaviy fikrlash imkonini beradi. Bu jarayon, albatta, ta'lim tizimining demokratlashuvi va modernizatsiyalashuvi, pedagogik kreativlik uchun ochilgan keng imkoniyatlar, progressiv tafakkur uslubini shakllantirish hamda pedagogik etika va faoliyat motivatsiyasini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, ta'lim jarayonida maksimal darajada erkinlik berish – ya'ni o'qituvchini, mavzuni, topshiriqlarni va ularni yechish uslublarini erkin tanlash imkoniyati ham ushbu metodning samaradorligini oshiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarni topshiriqlarni yechishda zarur bo'lgan ko'rgazmali materiallar (ilmiy maqolalar, video va audio yozuvlar, mahsulot namunalar) bilan yetarli miqdorda ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Asosiy muammolar atrofida birlashtirilgan nazariy materialni oqilona uzatish, o'qituvchi va talaba o'rtasida faol hamkorlik munosabatlarini shakllantirish zarur. Talaba istalgan vaqtda o'qituvchiga savol bilan murojaat qilishi, uning shaxsiy kuchli jihatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi lozim.

Amaliyotda keys-stadi ko'pincha bir manbaga asoslangan holda tuziladi. Ushbu yondashuv, manbalar ta'siriga ko'ra, keys-stadi texnologiyasi doirasida keyslarni tasniflashga asos bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, quyidagi turlardagi keyslarni ajratish mumkin:

- **Amaliy keyslar** – hayotiy vaziyatlarni bevosita tavsiflaydi.
- **Ta'limiy keyslar** – asosan o'quv jarayonida ta'lim berish va tarbiyalash vazifasini bajaradi.
- **Ilmiy-tadqiqot keyslari** – talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirishga qaratiladi.

Amaliy keyslarning asosiy vazifasi – hayotiy vaziyat va hodisalarni mukammal darajada aks ettirishdir. Ular vaziyatning amaliy modelini yaratadi, talabalarda xulq-atvor andozalarini shakllantirish, qaror qabul qilish va ma'lum bilim hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bois bu guruhdagi keyslar yuqori darajada ko'rgazmali va mukammal bo'lishi talab etiladi.

Ta'limiy keyslar mutaxassis kundalik hayotida ko'p uchraydigan tipik kasbiy vaziyatlarni aks ettiradi va birinchi navbatda ta'limiy hamda tarbiyaviy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilik keyslarining asosiy mazmuni esa insonning vaziyatga oid yangi bilim va ko'nikmalarni egalashidir. Ularning ta'limiy vazifasi ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini modellashtirish orqali o'zlashtiriladi. Shu sababli, tadqiqotchilik keyslaridan asosan malakali kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonida, ilmiy izlanishga tayyor mutaxassislar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dorivor o'simliklar kursini o'qitishda quyidagi amaliy keyslardan foydalanish mashg'ulot sifatini yanada oshiradi va talabalar qiziqishini kuchaytiradi:

1. **Keys.** Dorivor o'simliklarni hayotiy shakliga ko'ra joylashtirish. Ularni bioekologik xususiyatlariga ko'ra tahlil qilib, bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik turlarga ajratish.
 - Keysdagi muammoni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarni aniqlang (individual va kichik guruhda).
 - Muammoni hal qilish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftlikda).
2. **Keys.** Na'matak mevalaridan olingan sirop karton qutida saqlanayotganda to'kilishi va qadoqning zararlangani aniqlandi. Analitik tahlil natijasida biologik faol moddalar miqdori me'yoriy hujjatlarga mos kelishi belgilandi.
 - Na'matak siropining qadoqlash vositalariga qo'yiladigan talablarni o'rganing.
 - Biologik faol moddalar (askorbin kislotasi) miqdorining minimal darajasini aniqlang.
 - Me'yoriy hujjatda belgilangan hajm talablarini solishtirib, xulosaga keling.



3. **Keys.** Qalampir yalpizi barglarida efir moylari 1% dan yuqori chiqdi, biroq GX usulida mentol miqdori 40% dan kamligi aniqlandi.
 - Xom ashyoni tayyorlashdagi kamchiliklarni aniqlang.
 - Tahlil jarayonida qanday xatoga yo'l qo'yilganini ko'rsating.
 - Ushbu seriyadagi xom ashyo bo'yicha tavsiyalar bering.
4. **Keys.** Dorivor o'simlik xom ashyosini saqlash jarayonida ombor zararkunandalari bilan zararlanish holati kuzatildi.
 - Zararlanish darajasini aniqlang.
 - Xom ashyodan foydalanish bo'yicha tavsiya bering.
 - Saqlash jarayonida qaysi xatolarga yo'l qo'yilganini ko'rsating.

Keyslar bilan ishlash jarayonida talabalar ko'pincha yangi ma'lumotlarni izlab topishlari zarur bo'ladi. Bunday hollarda ular o'zlarining shaxsiy xulosalariga asoslangan holda muammoli vaziyat yechimlarini ishlab chiqadilar. Ko'pincha bunday yechimlar turlicha va ko'p variantli bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dorivor o'simliklar kursini o'qitishda keys-texnologiyalardan foydalanish zamonaviy ta'lim talablariga mos yondashuv bo'lib, u nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Keys-metod o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, guruhda hamkorlikda ishlashga va samarali qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Ushbu texnologiya jarayonida talabalar nafaqat bilimlarni egallaydilar, balki ijodiy tafakkur, mantiqiy fikrlash, nutq madaniyati, muhit sharoitlariga moslashuvchanlik kabi ko'nikmalarni ham rivojlantiradilar.

Bundan tashqari, keys-texnologiyalar talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlarini shakllantirish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini oshiradi. Natijada dorivor o'simliklar kursi faqat nazariy bilim manbai emas, balki amaliyotga yo'naltirilgan, hayotiy vaziyatlarda zarur bo'ladigan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali ta'lim kursiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova, J. O. (2007). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish. Toshkent.
2. Azimov, I. T. (2024). Biologiya o'qitish metodikasi. Toshkent: Afzalzoda Books nashriyoti.
3. Doniyorov, M., va boshqalar. (2025). Biologiya o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent.
4. Azimov, I. T., Mirzaboev, T. B., & Toshpo'latova, N. I. (2025). Biologiya darslarida lokal darajadagi texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Maktabgacha va maktab ta'limi, (6), 894–897.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.